



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ALOQA SOHASIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**ALOQA TARMOQLARI
VA KOMMUTATSIYA TIZIMLARI**



“Aloqa tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Axborot texnologiyalari va aloqa sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Aloqa tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0075



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu Kasbiy standart “Televizion qurilmalarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatuvchi elektromexanik”, “Radiotexnika texnigi”, “Radioaloqa elektromexanigi”, “Kompyuter tarmog'i montajchisi”, “Aloqa uskunasi apparatlarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor”, “Dispetcherlik aloqasi texnigi”, “Aloqa texnigi” va “Radionavigatsiya, radiolokatsiya va aloqa bo'yicha texnik” kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

abonent – Telekommunikatsiyalar operatori yoki provayderi bilan tuzilgan shartnomaga asosan telekommunikatsiyalar xizmatlaridan bevosita foydalanuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;

abonent qurilmasi – Abonent mulki bo'lgan yoki unga vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berilgan telekommunikatsiyalar tarmoqlari bilan o'zaro bog'lanadigan, telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali uzatiladigan yoki qabul qilinadigan signallarni hosil qilish, o'zgartirish, qayta ishlash uchun mo'ljallangan texnik vosita - qurilma (oxirlovchi qurilma);

abonent tarmog'i – turar joy yoki jamoat binosi maydoni chegarasida xizmat ko'rsatiladigan Abonentning texnik vositalari, qurilmalari va kabel liniyalari majmui;

abonent liniyasi – telekommunikatsiya liniyasining operator telekommunikatsiya tarmog'ining kirish nuqtasidan abonent rozetkasigacha yoki u mavjud bo'lmaganda, abonent qurilmasigacha bo'lgan qismi;

axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni;

axborot resursi – axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi, shu jumladan axborot tizimlarida ochiq

shaklda joylashtiriladigan yoxud e'lon qilinadigan audio-, video-, grafik va matnli axborot;

axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdori – axborot resurslariga yoki axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi – qonun bilan yoki axborot resurslarining, axborot tizimlarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga yoxud axborot tizimlariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

axborot texnologiyasi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar;

axborot tizimi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari;

aloqa liniyasi – signallar uzatgichdan qabul qilgichga uzatilishini va tarqatilishini ta'minlovchi qurilmalarning, inshootlarning hamda kabel liniyalarining va (yoki) radioliniyalarining majmui;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – iqtisodiy faoliyatining keng sohasini bildiradi. Har bir guruh faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi;

domen nomi – axborot resursiga yoki axborot tizimiga berilgan, ularni Internet jahon axborot tarmog'ida identifikatsiyalash uchun xizmat qiladigan noyob nom;

domen nomlari tizimi – Internet jahon axborot tarmog'ida domen nomlarini berish, ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish tartibi;

elektron raqamli imzo – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo;

elektron raqamli imzoning yopiq kaliti – elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo'yuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi;

elektron raqamli imzo kalitining sertifikati – elektron raqamli imzoning ochiq kaliti elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga muvofiqligini tasdiqlaydigan elektron hujjat;

elektron raqamli imzo kalitining egasi – o'ziga elektron raqamli imzo kalitining sertifikati berilgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

elektron raqamli imzoning ochiq kaliti – elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga muvofiq

bo'lgan, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi uchun ochiq bo'lgan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi;

elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash – elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo kalitining egasiga tegishlilikini va elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini tekshirishning ijobiy natijasi;

elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot;

elektron hujjat almashinuvi tizimi (EHAT) – Kompaniya ijroiya apparati va filiallari ortasida yozishmalarni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan Kompaniyaning Elektron hujjat almashinuvi tizimi;

elektron raqamli imzo (ERI) – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo;

foydalanuvchi qurilmasi – telekommunikatsiyalar tarmoqlari bilan o'zaro bog'lanadigan va signallarni shakllantirish, uzatish, qabul qilish uchun mo'ljallangan foydalanuvchining texnik vositasi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikmava kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodim yoki ishga (kasbga) talabgorning tayyorgarligi va ko'nikmalari darajasi bo'yicha mehnat funksiyalarining murakkabligi, ularni mustaqil bajarish va natijalarga mas'uliyati parametrlari bo'yicha belgilanadigan toifalangan talablar majmuasi;

mehnat funksiyasi – mehnat natijasiga erishishga qaratilgan o'zaro bog'liq mehnat harakatlari majmuasi;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat faoliyati turi – kasbiy faoliyat sohasining ajralmas qismi bo'lib, muayyan mehnat vazifalari hamda ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarning yaxlit majmuasini ifoda etadi;

rasmiy ta'lim – davlat tomonidan tan olingan davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejali ta'lim;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada aniqlangan turlarini ifodalaydi. U guruh ichida ancha tor doiradagi faoliyatni ifodalash uchun ishlatiladi;

kichik sinf – iqtisodiy faoliyatni eng aniqlik darajasida tasniflaydi. U sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini tavsiflaydi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kompyuter tarmog'i – bu bir yoki bir nechta kompyuterlarni, qurilmalarni va boshqa resurslarni bir-biriga bog'laydigan tizimdir, bu bog'lanish ma'lumot almashishni ta'minlaydi. Bu bog'lanishlar ma'lumotni bir kompyuterdan boshqasiga o'tkazish, fayllarni ulashish, printerlardan foydalanish va internetga ulanish kabi imkoniyatlarni yaratadi;

ma'lumotlar uzatish – ma'lumotlarni keyingi qayta ishlash uchun telekommunikatsiya vositalari yordamida signallar ko'rinishida bir punktdan boshqa punktga ko'chirish;

ma'lumotlar uzatish tarmog'i – ma'lumotlar uzatishini ta'minlash maqsadida ma'lum nuqtalar o'rtasida telekommunikatsiyalarni tashkil etish uchun tuzilgan telekommunikatsiya uzellari va kanallarining majmui;

mahalliy telefon aloqasi – bitta aholi punkti yoki ma'muriy hudud doirasida joylashgan foydalanuvchilar o'rtasida telefon orqali bog'lanish;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

operator – abonentlarga bir nechta telekommunikatsiyalar xizmatlari majmuini taklif etuvchi, telekommunikatsiyalar vositalari tarmog'iga ega bo'lgan va uning funktsionalligi hamda rivojlanishini ta'minlovchi "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi;

radioelektron vositalar – Radioto'lqinlarni uzatish va (yoki) qabul qilish uchun mo'ljallangan, bitta yo bir nechta uzatuvchi va (yoki) qabul qiluvchi qurilmalardan yoki shunday qurilmalarning kombinatsiyasidan tashkil topgan hamda yordamchi uskunalarni o'z ichiga olgan texnik vositalar;

shaharlararo telefon aloqasi – O'zbekiston Respublikasining turli ma'muriy tumanlarida (shahar tarkibidagi tumanlardan tashqari) joylashgan foydalanuvchilar o'rtasida telefon aloqasining ulanishi;

tarmoqlararo ulanishlar – telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchilar o'rtasida axborotning uzatilishi va qabul qilinishini ta'minlaydigan turli telekommunikatsiyalar operatorlari telekommunikatsiyalar tarmoqlarining texnologik hamkorligi;

telekommunikatsiyalar – axborotning belgilar, matnlar, tasvirlar, tovushlar, video tarzidagi yoki boshqa turdagi signallarini o'tkazgichli, radio, optik yoki boshqa elektromagnit tizimlardan foydalangan holda uzatish, qabul qilish va ularga ishlov berish;

telekommunikatsiyalar vositalari (telekommunikatsiyalar infratuzilmasi) – telekommunikatsiyalar uskunalari, telekommunikatsiyalar inshootlari, kabel liniyalari hamda ularni boshqarish imkonini beruvchi tizimlar;

telekommunikatsiyalar inshootlari (passiv telekommunikatsiyalar infratuzilmasi) – telekommunikatsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlovchi binolar, moslamalar, tayanchlar, machtalar, tarqatish qutilari, shkaflar va boshqalar;

telekommunikatsiyalar operatori (bundan buyon matnda operator deb yuritiladi) – mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida telekommunikatsiyalar infratuzilmasiga ega bo'lgan, uning ishlashini, rivojlanishini ta'minlovchi va telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

telekommunikatsiyalar tarmog'i – aloqa liniyalari yoki aloqa kanallari orqali o'zaro bog'langan, telekommunikatsiyalarni amalga oshiradigan uskunar majmui;

telekommunikatsiyalar tarmoqlarini attestatsiyadan o'tkazish – telekommunikatsiyalar tarmoqlari himoyalanganlik holatining axborot xavfsizligi sohasidagi milliy standartlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan tashkiliy-texnik tadbirlar majmui;

telekommunikatsiyalar tarmoqlarini raqamlash rejasi – operatorlar, telekommunikatsiyalar xizmatlari provayderlari va foydalanuvchi qurilmalari o'rtasida aniq raqamlarning birlashtirilishi;

telekommunikatsiyalar tarmoqlarini raqamlash tizimi – operatorlar, telekommunikatsiyalar xizmatlari provayderlari va foydalanuvchi qurilmalari o'rtasida raqamlarni taqsimlash va ularga raqam (raqamlar yoki belgilar kombinatsiyasini) birlashtirish tartibi;

telekommunikatsiyalar tarmog'i resurslari – Kabelli, havo, radioreleli, yo'ldosh va boshqa aloqa tizimlari bazasida tashkil qilingan, kanallar, traktlar, uzatish liniyalari, chetki uskuna, telefon, telegraf aloqa, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari va boshqa telekommunikatsiyalar tarmoqlari stansiyalari, uzellari va boshqa obyektlari;

telekommunikatsiyalarning texnologik xizmatlari (bundan buyon matnda texnologik xizmatlar deb yuritiladi) – operatorlar va telekommunikatsiyalar xizmatlari provayderlari tomonidan o'zining texnik vositalari hamda tarmoqlari orqali boshqa operatorlar va provayderlarga taqdim etiladigan, telekommunikatsiyalarni amalga oshirishning texnologik jarayonini ta'minlaydigan xizmatlar;

telekommunikatsiyalar uskunalari (aktiv telekommunikatsiyalar infratuzilmasi) – telekommunikatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan texnik uskunalar va ularga o'rnatilgan dasturiy ta'minot;

telekommunikatsiya xizmatlari – operatorning telekommunikatsiya tarmoqlari orqali signallarni hamda boshqa turdagi ma'lumotlarni qabul qilish, uzatish, qayta ishlash bo'yicha faoliyatining mahsuli. Telekommunikatsiya xizmatlarining to'liq ro'yxati (shu jumladan asosiy va qo'shimcha xizmatlar) Operator tomonidan amaldagi va tasdiqlangan Narxnomasi va telekommunikatsiya xizmatlari bo'yicha tariflarda belgilangan. Operatorning asosiy telekommunikatsiya xizmatlariga quyidagilar kiradi:

- mobil aloqa xizmatlari;
- ma'lumotlarni uzatish xizmatlari;
- simli telefon aloqa xizmatlari;
- telegraf aloqa xizmatlari.

telekommunikatsiyalar xizmatlari provayderi (bundan buyon matnda provayder deb yuritiladi) – foydalanuvchilarga operatorlar tarmog'i orqali tijorat asosida telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

telekommunikatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi (bundan buyon matnda foydalanuvchi deb yuritiladi) – telekommunikatsiyalar xizmatlarining iste'molchisi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

telekommunikatsiyalarning universal xizmatlari (bundan buyon matnda universal xizmatlar deb yuritiladi) – umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlari orqali barcha foydalanuvchilarga ko'rsatiladigan belgilangan sifatdagi majburiy xizmatlar to'plami (foydalanuvchilarning ushbu tarmoqdan foydalanishini ta'minlash, mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari, telegrammalar jo'natish va boshqalar);

xalqaro telefon aloqasi – O'zbekiston Respublikasi hududidagi telefon aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchi va boshqa davlat hududidagi telefon aloqasi xizmatlaridan foydalanuvchi o'rtasida telefon aloqasi orqali bog'lanish.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust 275-son “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (IFUT-2.1).

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;

AKT - axborot kommunikatsiya texnologiyalari;

ATS - avtomatik telefon stansiya.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Aloqa tarmoqlari va kommutatsiya tizimlari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Telekommunikatsiya, internet va mobil aloqa xizmatlarini taqdim etish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish va barqarorligini ta'minlash, yangi xizmat ko'rsatish formatini joriy etish, xalqaro internet trafigini mahalliyashtirish (lokalizatsiya) choralari ko'rish, mahalliy operatorlar bilan samarali hamkorlikda ishlarni tashkil etish.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	<p>K seksiyasi: Aloqa, kompyuter dasturlashtirish, konsalting, hisoblash infratuzilmasi va boshqa axborot xizmatlar sohasidagi faoliyat;</p> <p>61 – Aloqa;</p> <p>61.1 - Simli, simsiz va yo'ldosh aloqa xizmatlari ko'rsatish;</p> <p>61.10 - Simli, simsiz va yo'ldosh aloqa xizmatlari ko'rsatish;</p> <p>61.10.0 - Simli, simsiz va yo'ldosh aloqa xizmatlari ko'rsatish;</p> <p>61.2 - Telekommunikatsiya xizmatlarini qayta sotish bo'yicha faoliyat va aloqa sohasidagi vositachilik faoliyati;</p> <p>61.20 -Telekommunikatsiya xizmatlarini qayta sotish bo'yicha faoliyat va aloqa sohasidagi vositachilik faoliyati;</p> <p>61.20.0-Telekommunikatsiya xizmatlarini qayta sotish bo'yicha faoliyat va aloqa sohasidagi vositachilik faoliyati;</p> <p>61.9 -Boshqa telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish;</p> <p>61.90 -Boshqa telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish;</p> <p>61.90.0 Boshqa telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish.</p>	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini doimiy yaxshilab borish, abonentlar uchun sifatli yuqori tezlikdagi internet xizmatini taqdim etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish, Respublikamizning barcha hududlariga, shu jumladan, chekka va olis qishloqlarga ham optik tolali aloqa liniyalarini qurish, modernizatsiya qilish, qamrovini kengaytirib borilsh, simsiz texnologiyalarni rivojlantirish, Internet tarmog'iga yuqori tezlikda ulanishni tashkil etish, xalqaro aloqa operatorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri ulanish va xalqaro bozorda telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim qilish bo'yicha hamkorlikni amalga oshirish.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
35130 - Kompyuter tarmog'i montajchisi		3	
35221006 - Radiotexnika texnigi		3	
74212010 - Televizion qurilmalarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatuvchi elektromexanik		3	
74222014 - Radioaloqa elektromexanigi		3	
74222002-Aloqa uskunasi apparatlarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor	4		

		35221002 - Aloqa texnigi	5
		35221003 - Dispetcherlik aloqasi texnigi	5
		35221005 - Radionavigatsiya, radiolokatsiya va aloqa bo'yicha texnik	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	35130 Kompyuter tarmog'i montajchisi	A1.3	Kompyuter tarmoqlarini o'rnatish, sozlash va qo'llab-quvvatlash, tarmoqni kuzatish, muammolarni bartaraf etish va tarmoq xavfsizligini ta'minlash	A1.01.3	Serverlar va ishchi stansiyalariga tarmoq dasturiy ta'minotini o'rnatish, serverdagi tizimni konfiguratsiyalash.
				A1.02.3	Fayl-serverlar, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlarining serverlarida va ishchi stansiyalardagi dasturiy ta'minotning integratsiyalashuvini ta'minlash
				A1.03.3	Serverning dasturiy ta'minotini ishchi holatda qo'llab-quvvatlash
				A1.04.3	Ma'lumotlardan o'z vaqtida nusxa olishni rezervlashni ta'minlash
				A1.05.3	Foydalanuvchilarni tarmoqda, kompyuterlar bilan, arxivlarni yuritishga o'qitish
				A1.06.3	Tarmoq xavfsizligi (tarmoqdan ruxsatsiz foydalana olish, tizimli fayllar va ma'lumotlarni ko'rib chiqish yoki o'zgartirishdan muhofaza qilish)ni, shuningdek tarmoqlararo o'zaro ishlash xavfsizligini ta'minlash
2.	35221006 Radiotexnika texnigi	B1.3	Radiotexnika qurilmalarini o'rnatish va sozlash	B1.01.3	Radiotexnika qurilmalarini o'rnatish va ulash
				B1.02.3	Qurilmalarni dastlabki ishga tushirish va sozlash
				B1.03.3	O'rnatilgan qurilmalar funkcionalligini tekshirish
		B2.3	Radiotexnika qurilmalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	B1.01.3	Radiotexnika qurilmalarining nosozliklarini aniqlash va diagnostika qilish
				B1.02.3	Radiotexnika qurilmalarini ta'mirlash va ish qobiliyatini tiklash
				B1.03.3	Profilaktik texnik xizmat ko'rsatish va nazorat qilish
3.	74212010 Televizion qurilmalarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatuvchi elektromexanik	D1.3	Televizion va radiotexnika uskunasing belgilangan talablarga muvofiq to'g'ri texnik ekspluatatsiya qilish	D1.01.3	Kommutatsiya va signalizatsiya tizimlarining ishga tayyorligini nazorat qilish
				D1.02.3	Repetitsiyalarni o'tkazish va uzatishga tayyorligini ta'minlash
		D2.3	Televizion va radiotexnika uskunasing belgilangan talablarga muvofiq profilaktik va joriy ta'mirlash	D2.01.3	Zarur o'lchashlarni o'tkazish
				D2.02.3	Televizion va radiotexnika uskunalarni profilaktik xizmat ko'rsatish

				D2.03.3	Televizion va radiotexnika uskunalari joriy ta'mirlash
4.	74222014 Radioaloqa elektromexanigi	E1.3	Texnologik aloqa uskunalari texnik xizmat ko'rsatish	E1.01.3	Uskunaning ish holatini tekshirish va monitoring qilish
				E1.02.3	Rejali profilaktik xizmat ishlarini bajarish
				E1.03.3	Texnik hujjatlar asosida xizmat ko'rsatish ishlarini qayd etish
		E2.3	Texnologik aloqa uskunalari ta'mirlash	E2.01.3	Uskunadagi nosoz qismlarni aniqlash va diagnostika qilish
				E2.02.3	Nosoz qismlarni ta'mirlash yoki almashtirish
				E2.03.3	Ta'mir natijasida ish faoliyatini tekshirish va sozlash
5.	74222002 Aloqa uskunasini apparatlarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor	F1.4	Aloqa uskunalari o'rnatish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va ishlatish. Abonentlarni bog'lash, jihozlarni sozlash, nosozliklarni bartaraf qilish, yozuvlarni yuritish va aloqa tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash	F1.01.4	Abonentlarni tarmoqlarga ulash, abonent uskunalari o'rnatish va sozlash (modemlar, routerlar va boshqalar)
				F1.02.4	Aloqa uskunalari, ham stansiya, ham chiziqli kabel inshootlarini profilaktika, diagnostika va nosozliklarni bartaraf etish, ta'mirlashni amalga oshirish
				F1.03.4	Jurnallarni to'ldirish, sarf materiallari va ehtiyot qismlarni hisobga olish, uskunaning ishlashi to'g'risida hisobot berish
				F1.04.4	Uskunalar holatini kuzatish, favqulodda vaziyatlarga javob berish, tarmoqdagi nosozliklar sabablarini aniqlash va bartaraf etish
				F1.05.4	Aloqa uskunalari sinovdan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish, texnik talablarga muvofiqligini nazorat qilish
				F1.06.4	Uskunani ulash, sozlash va ta'mirlash bo'yicha foydalanuvchi so'rovlarini qayta ishlash
				F1.07.4	Zamonaviy ish usullarini qo'llash, ilg'or tajribalarni joriy etishda ishtirok etish
6.	35221002 Aloqa texnigi	G1.5	Aloqa apparaturasi va uskunasi: ma'lumotlar uzatish telekommunikatsiya uskunasini, kanal hosil qiluvchi va kommutatsiya uskunasini, radiorele liniyalarini texnik ekspluatatsiya qilish, ularga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	G1.01.5	Texnik ekspluatatsiya qilish bo'yicha qoidalar va yo'riqnomalar hamda boshqa normativ hujjatlarga muvofiq telegraf, shaharlararo va mahalliy telefon aloqa kanallari va traktlarini sozlash va xarakteristikalarini o'lchash
				G1.02.5	Biriktirilgan texnik vositalarning texnik ko'riklari va ularning qoniqarli ishlamaganligi uchun talabnomalar qabul qilish
				G1.03.5	Texnik ekspluatatsiya qilish qoidalariga muvofiq belgilangan ekspluatatsion-texnik normalar doirasida aloqa uskunasini, traktlari va kanallarining uzluksiz, sifatli ishlashini ta'minlash

				G1.04.5	Aloqalar, apparatura va uskunani sozlash, ularning parametrlarini o'lchash
				G1.05.5	Kelib tushgan talabnomalarni tekshirish bo'yicha va shikastlanishlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish bo'yicha almashinadigan xodimlarga tezkor yordam ko'rsatish
				G1.06.5	Avariya-texnik signalizatsiyasining sifatli ishini ta'minlash
				G1.07.5	Biriktirilgan uskunada texnik ko'rikni amalga oshirish va rejadagi profilaktika ishlarini bajarish
				G1.08.5	O'lchash vositalari, asboblarni soz holatda saqlash, ularning to'g'ri qo'llanishini ta'minlash
7.	35221003 Dispetcherlik aloqasi texnigi	H1.5	Almashuv oqimlarining o'z vaqtida harakatlanishi, aloqa vositalari va uskuna ishining, shuningdek aloqa vositalarini ekspluatatsiya qilish qoidalariga rioya qilishning tezkor nazoratini amalga oshirish	H1.01.5	Almashuv oqimlari yo'nalish sxemalari, pochmani tashish grafiklarining bajarilishini nazorat qilish
				H1.02.5	Ishlov berish normativ muddatlaridan o'tish ketishlar, almashuvning ortiqcha oqimlari, aloqa vositalari va uskunaning shikastlanishlarini aniqlash
				H1.03.5	Almashuv oqimlariga ishlov berish va uskunaning shikastlanish sabablarini o'rganish
				H1.04.5	Almashuv oqimlari harakatlanishining sekinlashish va tezlashishlarining oldini olish (oqimlar yo'nalishlarining o'zgarishi), shuningdek shikastlangan aloqalar va uskunaning ishlashini tiklash bo'yicha tezkor choralar ko'rish
8.	35221005 Radionavigatsiy, radiolokatsiya va aloqa bo'yicha texnik	K1.5	ATS uskunalarni o'rnatish va sozlash	K1.01.5	Yangi ATS uskunalarni o'rnatish
				K1.02.5	Sifatli aloqani ta'minlash uchun ATSni sozlash va optimallashtirish
				K1.03.5	Telefon aloqalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash
		K2.5	ATS uskunasi texnik xizmat ko'rsatis	K2.01.5	Buzilishlarning oldini olish uchun ATSGa profilaktik xizmat ko'rsatish
				K2.01.5	Buzilishlarning oldini olish uchun ATSGa profilaktik xizmat ko'rsatish
				K2.02.5	Nosoz ATS komponentlarini almashtirish
				K2.03.5	ATS va uning jihozlaridagi nosozliklar diagnostikasi
		K3.5	ATS uskunasi ta'mirlash	K3.01.5	Nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish
				K3.02.5	Nosoz ATS komponentlarini ta'mirlash

		K4.5	Texnik hujjatlarni yuritish	K4.01.5	Bajarilgan ishlar hisobini yuritish
				K4.02.5	Texnik hujjatlar shakllarini to'ldirish
				K4.03.5	Jurnallarni to'ldirish, sarf materiallari va ehtiyot qismlarni hisobga olish, uskunaning ishlashi to'g'risida hisobot berish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Kompyuter tarmog'i montajchisi
Mashg'ulot nomining kodi:	35130
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> - 18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; - Mustaqil ishlash uchun ruxsatga ega bo'lishi; - Elektr xavfsizligi bo'yicha malaka ega bo'lishi; - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim, norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	6	Tarmoq administratorlari
	5	Axborot texnologiyalari texnik
	6	Axborot xavfsizligi mutaxassisi
	5	Telekommunikatsiya uskunalari texnik
Mehnat funksiyalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3- Kompyuter tarmoqlarini o'rnatish, sozlash va qo'llab-quvvatlash; tarmoqni kuzatish, muammolarni bartaraf etish va tarmoq xavfsizligini ta'minlash	A1.01.3- Serverlar va ishchi stansiyalariga tarmoq dasturiy ta'minotini o'rnatish, serverdagi tizimni konfiguratsiyalash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1.Tarmoq dasturiy ta'minotini server va ishchi stansiyalarga o'rnatish
		2.Server operatsion tizimini sozlash va konfiguratsiya parametrlari kiritish
		3.Tarmoq qurilmalarini server bilan integratsiyalash
		4.Foydalanuvchilar uchun tarmoq ulanishlarini yaratish va sinovdan o'tkazish
		5.Tizim ishlashini tekshirish va kerakli log-fayllarni ko'rib chiqish
		Ko'nikmalar:
		Operatsion tizimlarni o'rnatish va sozlash
		Tarmoq protokollarini konfiguratsiya qilish
		Tarmoq qurilmalarini ulash va server bilan integratsiyalash
		Dasturiy ta'minot o'rnatish va foydalanuvchilarni sozlash
		Bilimlar:
		Kompyuter tarmoqlari asoslari va tarmoq protokollari
		Server va ishchi stansiyalar arxitekturasi va ishlash prinsiplari
		Dasturiy va apparat ta'minotini o'rnatish, sozlash va muammolarni bartaraf etish usullari
		Axborot xavfsizligi va tarmoq himoyasi asoslari
Mehnat harakatlari:		
1. Fayl-server va ma'lumotlar bazasi serverlarini ishga tayyorlash va sozlash		
2. Server va ishchi stansiyalar o'rtasida dasturiy ta'minotning uzviy ishlashini ta'minlash		
3. Ma'lumotlar almashinuvini sinash va tizimlar o'rtasidagi uzluksiz integratsiyani nazorat qilish		
4. Dasturiy nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha texnik choralarni amalga oshirish		

	A1.02.3- Fayl-serverlar, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlarining serverlarida va ishchi stansiyalardagi dasturiy ta'minotning integratsiyalashuvini ta'minlash	5. Integratsiya ishlari yakunlarini hujjatlashtirish va hisobot tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Fayl-server va ma'lumotlar bazalarini sozlash va ishga tushirish.
		Server va ishchi stansiyalar o'rtasidagi dasturiy integratsiyani amalga oshirish.
		Tizimlar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvini test qilish va nazorat qilish.
		Texnik hujjatlarni yuritish va integratsiya jarayonlarini qayd etish.
		Bilimlar:
		Fayl-serverlar va ma'lumotlar bazasi boshqaruv tizimlarining ishlash prinsiplari
		Tarmoq protokollari va ma'lumotlar almashinuvini asoslari
	Integratsiyalashgan tizimlar xavfsizligi va ishlash samaradorligini ta'minlash usullari	
	Nosozliklarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish texnologiyalari	
	A1.03.3- Serverning dasturiy ta'minotini ishchi holatda qo'llab-quvvatlash	Mehnat harakatlari:
		1. Server dasturiy ta'minotining ishlashini doimiy nazorat qilish
		2. Ish faoliyatida yuzaga keladigan dasturiy nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish
		3. Yangilanishlar va xavfsizlik patchlarini o'rnatish
		4. Server konfiguratsiyasini optimallashtirish va zaxira nusxalarini yaratish
		5. Dasturiy ta'minotning barqarorligini test qilish va hisobot tayyorlash
Ko'nikmalar:		
Serverdagi dasturiy ta'minotni doimiy nazorat qilish va sozlash		
Nosozliklarni tahlil qilish va bartaraf etish choralarini ko'rish		
Yangilanishlar va xavfsizlik patchlarini to'g'ri o'rnatish		
Server ma'lumotlarini zaxiralash va tiklashni amalga oshirish		
Bilimlar:		
Server operatsion tizimlari va xizmatlar		
Tarmoq xavfsizligi, antivirus va himoya tizimlari		
Dasturiy ta'minot yangilanish jarayonlari va tizim optimallashtirish usullari		
Zaxira nusxa olish va tiklash texnologiyalari		
	Mehnat harakatlari:	
	1. Ma'lumotlar zahirasini yaratish uchun rezervlash jadvalini sozlash	

A1.04.3- Ma'lumotlardan o'z vaqtida nusxa olishni rezervlashni ta'minlash	2. Avtomatik va qo'lda zaxira nusxalarini yaratish va nazorat qilish	
	3. Nusxa olish jarayonining to'g'ri ishlashini tekshirish va nosozliklarni bartaraf etish	
	4. Muhim ma'lumotlarni tiklash sinovlarini o'tkazish	
	5. Zaxira jarayonlari bo'yicha texnik hisobot tayyorlash	
	Ko'nikmalar:	
	Zaxira nusxalarini yaratish va tiklashni amalga oshirish	
	Avtomatlashtirilgan va qo'lda rezervlash jarayonlarini boshqarish	
	Nusxa olish uchun maxsus dasturlar va texnologiyalardan foydalanish	
	Zaxira ma'lumotlarini tekshirish va tiklash bo'yicha sinov o'tkazish	
	Bilimlar:	
	Ma'lumotlarni zaxiralash va tiklash texnologiyalari	
	Zaxira serverlari, ombor qurilmalari va ma'lumot xavfsizligi asoslari	
	Avtomatlashtirilgan rezervlash dasturlari	
	Ma'lumotlarni tiklash strategiyalari va favqulodda holat rejalarini bilish	
	A1.05.3- Foydalanuvchilarni tarmoqda, kompyuterlar bilan, arxivlarni yuritishga o'qitish.	Mehnat harakatlari:
		1. Foydalanuvchilarga kompyuter tarmog'idan to'g'ri foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar berish
		2. Ish stansiyalari va tarmoq resurslaridan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatish
3. Ma'lumotlarni to'g'ri saqlash, zaxiralash va arxiv yuritish tartiblarini tushuntirish		
4. Axborot xavfsizligi qoidalarini tushuntirish va rioya qilishga o'rgatish		
5. Foydalanuvchilarning amaliy savollariga javob berish va qo'llab-quvvatlash		
Ko'nikmalar:		
Foydalanuvchilarga kompyuter va tarmoqdan foydalanishni o'rgatish		
Ma'lumotlarni to'g'ri saqlash va arxivlash bo'yicha tushuntirish berish		
Oddiy texnik muammolarni tushuntirish va hal qilishda yordam berish		
Axborot xavfsizligi bo'yicha tavsiyalar berish		
Bilimlar:		
Kompyuter va tarmoq asoslari		
Ma'lumotlar arxivlash va zaxira nusxa olish qoidalari		

		Foydalanuvchilar bilan samarali muloqot asoslari
		Axborot xavfsizligi va ma'lumotlar himoyasi bo'yicha asosiy tushunchalar
A1.06.3-Tarmoq xavfsizligi (tarmoqdan ruxsatsiz foydalana olish, tizimli fayllar va ma'lumotlarni ko'rib chiqish yoki o'zgartirishdan muhofaza qilish)ni, shuningdek tarmoqlararo o'zaro ishlash xavfsizligini ta'minlash		Mehnat harakatlari:
		1. Tarmoqda ruxsatsiz kirishlarni aniqlash va bloklash choralarini ko'rish
		2. Tizimli fayllar va ma'lumotlarning yaxlitligini himoyalash uchun xavfsizlik sozlamalarini o'rnatish
		3. Tarmoqlararo xavfsiz o'zaro ishlashni ta'minlash uchun xavfsizlik siyosatlarini joriy etish
		4. Antivirus, firewall va boshqa xavfsizlik dasturlarini sozlash va yangilash
		5. Tarmoq xavfsizligi holatini monitoring qilish va xavflarni bartaraf etish
		Ko'nikmalar:
		Tarmoq xavfsizligini ta'minlash uchun xavfsizlik sozlamalarini amalga oshirish
		Ruxsatsiz kirishlar va xavfli faoliyatni aniqlash, oldini olish
		Tarmoqlararo xavfsiz aloqa o'rnatish
		Antivirus, firewall va monitoring vositalaridan foydalanish
		Bilimlar:
		Tarmoq xavfsizligi asoslari va axborot himoyasi qoidalari
		Ruxsatsiz kirishni aniqlash va himoya texnologiyalari
		Tizim xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha xalqaro standartlar va amaliyotlar
	Tarmoqlararo o'zaro aloqaning xavfsiz protokollari	
Mas'uliyat mustaqillik:	va	1. Server va tarmoq tizimlarining to'g'ri o'rnatilishi va ishonchli ishlashi uchun javobgar
		2. Muammolarni tahlil qilishda va konfiguratsiya yechimlarini tanlashda mustaqil harakat qiladi
		3. Tizimlar o'rtasidagi uzluksiz ma'lumot almashinuvini ta'minlashda javobgar
		4. Nosozliklarni mustaqil aniqlash va texnik yechimlar ishlab chiqishda faollik ko'rsatadi
		5. Muhim ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashda javobgar
		6. Foydalanuvchilarning tarmoq va kompyuterlar bilan to'g'ri ishlashini ta'minlashda javobgar

		7. Tarmoq xavfsizligi va ma'lumot himoyasini doimiy ta'minlashda javobgar
<p>Texnik va/yoki texnologik talab</p>		<p>1.Tarmoq uskunalari: Switchlar, routerlar, access pointlar, firewall qurilmalari; 2.Server texnologiyalari: Fayl-serverlar, domen nazoratchilari, ma'lumotlar bazasi serverlari; 3.Kabel tarmoqlari:Ethernet (Cat5e, Cat6, Cat6a), optik tolali kabellar, patch panel va ulagichlar; 4.Virtualizatsiya texnologiyalari: VMware, Hyper-V, VirtualBox. 5.Zaxira va tiklash texnologiyalari: Acronis, Veeam Backup, Windows Backup, NAS qurilmalari; 6. Axborot xavfsizligi vositalari: Antiviruslar (Kaspersky, ESET, Windows Defender), IDS/IPS tizimlari, VPN texnologiyalari; 7. Dasturiy ta'minot: Windows Server, Linux distributivlari, Active Directory, DHCP, DNS. Microsoft Office, Outlook, ma'lumotlar almashinuvi dasturlari; 8. Monitoring va boshqaruv vositalari: Zabbix, PRTG Network Monitor, TeamViewer, AnyDesk; 9. - Qo'shimcha qurilmalar: Tarmoq testerlari, signal o'lchash asboblari, crimping tools, multimetrlar.</p>

Kasbning nomi:	Radiotexnika texnigi
Mashg'ulot nomining kodi:	35221
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<ul style="list-style-type: none"> - 18 yoshga to'lgan bo'lishi; erkak (ayol); - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; - Mustaqil ishlash uchun ruxsatga ega bo'lishi; - Elektr xavfsizligi bo'yicha kamida III malaka guruhiga ega bo'lishi. - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va Vatani sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim, norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Radioelektron apparatlar va asboblarni sozlovchi
	3	Radioelektron apparatura chilangar-mexanigi
	3	Radioelektron apparaturalar va asboblarni montajchisi
	3	Radioelektron apparatlar va asboblarni nazoratchisi
	4	Radioelektron apparatlar va asboblarni nuqsonini aniqlovchi
Mehnat funksiyalarining tasnifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 - Radiotexnika qurilmalarini o'rnatish va sozlash	B1.01.3 - Radiotexnika qurilmalarini o'rnatish va ulash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Texnik hujjatlar, sxemalar va montaj chizmalarini o'rganish
		2. Qurilmani o'rnatish joyini tayyorlash va texnik talablarni bo'yicha tekshirish
		3. Radiotexnika qurilmasini belgilangan joyga o'rnatish
		4. Elektr ta'minoti, signal va boshqaruv zanjirlarini ulash
		5. Kabel va ulagichlarning to'g'ri va ishonchli ulanganligini tekshirish
		6. Yerga ulash va elektr xavfsizligi choralarini ta'minlash
		7. O'rnatish natijalarini vizual va funksional tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Sxema va chizmalar asosida qurilmalarni o'rnatish
		Elektr va signal kabellarini to'g'ri ulash
		Montaj asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish
		Ulanishlarning ishonchliligini tekshirish
	Elektr xavfsizligi qoidalariga amal qilish	
	Aniqlangan kamchiliklarni tezkor bartaraf etish	
	Bilimlar:	
	Radiotexnika qurilmalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari	
	Elektr va radiotexnika sxemalarini o'qish qoidalari	
	Montaj va ulash texnologiyalari	
	Elektr xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablari	
	Texnik hujjatlar bilan ishlash tartibi	
	Yerga ulash va himoya vositalari haqida asosiy tushunchalar	
	B1.02.3 - Qurilmalarni dastlabki ishga tushirish va sozlash	Mehnat harakatlari:
	1. Qurilmani ishga tushirishdan oldin uning texnik holati va sozlashga tayyorligini baholash	
	2. Dastlabki sozlash parametrlarini ishlab chiquvchi yo'riqnomalari asosida kiritish	

		3. Qurilmaning ish rejimlarini bosqichma-bosqich faollashtirish
		4. Signal sifati, chastota, quvvat va barqarorlik ko'rsatkichlarini nazorat qilish
5. Qurilma ishlashida yuzaga keladigan nosozlik va og'ishlarni aniqlash		
6. Ish rejimlarini optimallashtirish va barqaror holatga keltirish		
7. Sozlash yakunlari bo'yicha natijalarni qayd etish		
Ko'nikmalar:		
Qurilmani xavfsiz va ketma-ket ishga tushirish		
Sozlash parametrlarini amaliy tanlash va moslashtirish		
Qurilma ish holatini tahlil qilish		
Ish rejimlarini barqarorlashtirish		
Og'ish va nosozliklarni sozlash orqali bartaraf etish		
Natijalarni texnik qaydlar orqali rasmiylashtirish		
Bilimlar:		
Radiotexnika qurilmalarini ishga tushirish tartiblari		
Sozlash parametrlari va ularning ishlashga ta'siri		
Qurilma rejimlarining funksional xususiyatlari		
Signal va chastota sozlash asoslari		
Texnik sinov va nazorat usullari		
Sozlash jarayonida yuzaga keladigan xatolik turlari		
B1.03.3- O'rnatilgan qurilmalar funktsionalligini tekshirish	Mehnat harakatlari:	
	1. Qurilmaning funksional bloklari bo'yicha tekshiruv ketma-ketligini belgilash	
	2. Nazorat va o'lchov nuqtalarini aniqlash hamda test rejimlarini faollashtirish	
	3. Qurilmaning har bir funksiyasi belgilangan algoritim bo'yicha bajarilishini sinash	
	4. Kirish va chiqish signallari o'rtasidagi moslikni tekshirish	
	5. Qurilma funksiyalari o'rtasida o'zaro bog'liqlik va uzilishlar mavjudligini aniqlash	
	6. Me'yorlardan chetlanish holatlarini qayd etish	
	7. Funksional tekshiruv yakunlari bo'yicha xulosa shakllantirish	
	Ko'nikmalar:	
	Qurilmani funksional bloklar bo'yicha tekshirish	
	Test rejimlaridan to'g'ri foydalanish	
	Signal mosligini amaliy baholash	
	Funksional uzilishlarni aniqlash	
	Tekshiruv natijalarini tahlil qilish	
	Xulosa va texnik hisobot tayyorlash	
	Bilimlar:	
	Radiotexnika qurilmalarining funksional tuzilmasi	
	Funksional sinov turlari va ularni o'tkazish usullari	
	Kirish–chiqish signallari mantiqi	

		Qurilmalararo o'zaro ishlash prinsiplari	
		Funksional nosozliklarni aniqlash usullari	
		Texnik baholash mezonlari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Texnik talablar va xavfsizlikka rioya qilish uchun mas'ul	
		2. Ish natijalarining sifati uchun mas'ul	
		3. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha axborot berish va cheklangan qaror qabul qilish	
